



PARTICIPATION OF WOMEN ON THE FRONT AND BEHIND THE FRONT DURING THE WAR YEARS (IN THE EXAMPLE OF THE SOUTHERN REGIONS)

Oksana Rahmonkulova

Associate Professor, Ph.D.

Karshi State University

Uzbekistan, Karshi

E-mail: oksanarahmonkulova@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: World War II, Uzbekistan, southern regions, women, rear, military participation, labor market, changes in society, personal stories, archival documents.

Received: 13.01.24

Accepted: 15.01.25

Published: 17.01.25

Abstract: The article provides detailed information about the combat and rear-line activities of women in the southern regions of Uzbekistan during the Second World War. This work analyzes the processes of changing women's military participation, their place in the labor market, and their role in society. The article also highlights the courage and self-sacrifice of women during the war, despite the difficulties, and their contribution to strengthening their position in society. The article, based on personal stories and archival documents, highlights the activity of women in various positions at the front and rear.

URUSH YILLARIDAGI XOTIN-QIZLARNING FRONT VA FRONT ORTIDAGI ISHTIROKI (JANUBIY VILOYATLAR MISOLIDA)

Oksana Rahmonkulova

Dotsent, PhD

Qarshi davlat universiteti,

O'zbekiston, Qarshi

E-mail: oksanarahmonkulova@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, O'zbekiston, janubiy viloyatlar, xotin-qizlar, front orti, harbiy ishtirok, mehnat bozori, jamiyatdagi o'zgarishlar, shaxsiy hikoyalar, arxiv hujjatlari.

Annotatsiya: Maqola O'zbekistonning janubiy viloyatlarida ikkinchi jahon urushi yillarida xotin-qizlarning jangovar va front ortidagi faoliyatlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Ushbu ishda, xotin-qizlarning harbiy ishtiroki, mehnat bozoridagi o'rni, va jamiyatdagi rolini o'zgartirish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola urush

davrida ayollarning jasorati va qiyinchiliklarga qaramasdan ko'rsatgan fidokorliklari va ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashdagi hissalarini ta'kidlaydi. Maqolada shaxsiy hikoyalar va arxiv hujjatlariga tayanib, ayollarning front va front ortidagi turli lavozimlardagi faolligini yoritib beriladi.

УЧАСТИЕ ЖЕНЩИН В ГОДЫ ВОЙНЫ НА ФРОНТЕ И В ТЫЛУ (НА ПРИМЕРЕ ЮЖНЫХ РЕГИОНОВ)

Оксана Рахмонкулова

Доцент, PhD

Каришинский государственный университет,

Узбекистан, Кариши

E-mail: oksanarahmonkulova@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Вторая мировая война, Узбекистан, южные провинции, женщины, прифронтовая зона, военное участие, рынок труда, изменения в обществе, личные истории, архивные документы.

Аннотация: В статье подробно рассказывается о боевой и прифронтовой деятельности женщин в южных регионах Узбекистана в годы Второй мировой войны. В данной работе анализируются процессы военного участия женщин, их место на рынке труда, и изменение их роли в обществе. В статье также подчеркивается мужество и самоотверженность женщин во время войны, несмотря на трудности, и их вклад в укрепление своего положения в обществе. В статье освещается деятельность женщин на различных должностях на фронте и за его пределами, опираясь на личные истории и архивные документы.

Kirish. XX asr insoniyat tarixida Ikkinchi jahon urushi eng fojiali iz qoldirgan tarixiy voqealardan sanaladi. Hozirda jahondagi davlatlar o'rtasida tinchlikni asrash, aloqalarni mustahkamlash markaziy o'rinda turgan xalqqaro dolzarb masalalardan bo'lib kelmoqda. Urushning oqibatlari dunyoning barcha nuqtalaridan front uchun jalb etildi. Jumladan xotin-qizlar ham o'zlarining daxldorligini his qilib tashabbus bilan front ichi front ortida mehnat qilishdi.

Ikkinchi jaxon urushi davrida Kashkadaryo va Surxondaryo viloyatlarida xotin-qizlar yuzlab front orasidagi vazifalarda qatnashdilar. Ular armiyaga ko'maklashish, xo'jaliklarda faol ishlash, dori-darmon ta'minotini ta'minlash, shuningdek, ijtimoiy hayotda ham faol ishtirok etish uchun ko'plab tashkilotlarga jalb qilindilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xotin-qizlari fashizm ustidan g'alabaga erishishda o'zlarining munosib hissasini qo'shdilar. O'zbekistondan 4555 nafar xotin-qiz urush yillarida frontda erkaklar bilan bir safda turib jangga kirdi. Masalan, Shahrisabz tumanida yuzlab fuqarolar 1.1 firqa a'zolari, yoshlardan 1037 kishi, xotin-qizlardan 10 kishi ko'ngillilar qatoriga urushga otlanganlar[1].

Front orqasida ishni qay darajada tashkil etilishi uning taqdiriga hal qiluvchi ta'sir etardi. Shuning uchun "Front orqasida frontdagidek" ishlash shiori xalq orasida targ'ib qilingan.

Urush yillarida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning xalq xo'jaligidagi rolini o'stirish davr talabiga aylanganligi uchun xotin-qizlar bo'limlari 1943 yil may oyida VKP(b)ning qarori bilan qisqa muddatga qayta tashkil etildi, ular faoliyatida ishning yo'nalish, shakl va usullari ancha rivojlantirilib, murakkablashtirib borildi. Hattoki ayollar kun bo'yi mehnat qilish bilan birga, kechalari jangchilarga issiq kiyimlar tikganlar. Bu xayrli ishdan biror kishi chetda qolgan emas, har kim qudratiga yarasha muruvvat ko'rsatgan.

1941 yil iyulda —Pravda gazetasida —SSSRning hamma xotin-qizlariga murojaatnomasi e'lon qilindi. Murojaatnoma mohiyati ayollarni erkaklar o'rini egallagan holda front ortida mehnat qilishga safarbar etishga bag'ishlangandi. Shundan so'ng respublikaning korxona va tashkilotlarida xotin-qizlarni —erkaklar kasbiga o'rgatish harakati keng avj oldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xotin-qizlarni ommaviy kasb-hunarlariga o'rgatish bo'yicha texnikum va MTSlarda sanoat hamda qishloq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlashning 1 va 6 oylik qisqa muddatli kurslari, 10 kunlik seminarlar, stexanovchilar maktablari tashkil etildi. Natijada urushning 3 yili davomida 103 ming nafar ishchi ayol tayyorlandi. Ular og'ir jismoniy mehnat talab qiladigan ishlab chiqarishga jalb qilindi. Xususan, 1700 nafar o'zbek xotin-qizlari Angren ko'mir konida ishlay boshlashdi. 1942 yil 13 fevraldagi O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoni bilan ishlamayotgan mehnatga layoqatli ayollar, o'smir yoshlar va nafaqaxo'rlar hisobiga ishchilar safi yanada to'ldirildi[2]. Natijada frontga oziq-ovqat, kiyim-kechak mahsulotlarini tayyorlashda ayollar qamrovi ko'paydi.

Misol uchun, birgina Shurchi rayonining dexkonlari ishchi- xizmatchilarga sovg'a sifatida 38 tonna don, sabzavot va poliz mahsulotlari hamda turli mevalar yetishtirib, oziq-ovqat muammosini hal qilishga o'zlarining munosib xissalarini qo'shdilar. Bu ishlarni amalga oshirishda erkaklar qatori X. Bozorova, B.Abdunazarova, S.Ortikova, Sh.Turayeva va Q.Turdiyeva kabi noz-ne'mat bunyodkorlarining alohida xissasi bor[3]. Shurchilik Xukm Yunusova ham Qoratog', Zang, Ilonsoy va Hazarbog' kanallari kurilishida faol ishtirok etdi. Kanal kuruvchilarining tinimsiz mehnatlari evaziga 1942 yilning avgust oyida kanalning 80 km uzunlikdagi bir qismi qurib bitkazildi. Bunday kanal qurilishi viloyatdagi mavjud ekin maydonlarini suv bilan ta'minlab qolmay, suvsiz yerga suv chiqarish imkonini ham bergan[3].

Og'ir urush davrida rivojlanayotgan sanoatni ishchi kuchi bilan ta'minlash vazifasi ayniqsa keskin bo'lib turdi. Ko'p minglab tajribali ishchilarning frontga ketishi natijasida vujudga kelgan juda katta yetishmovchilik sanoat korxonalariga yangi kelgan va tajribaga, mehnat malakasiga ega bo'lmaganlarni g'oyat qisqa muddat ichida turli ishlab chiqarish kasblariga o'rgatish va o'qitish yo'li bilan to'ldirib borildi. Shuningdek, O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1942 yil 13 fevraldagi Farmoni bilan urush davrida ishlamayotgan mehnatga layoqatli aholi — xotin-qizlar, o'smirlar, nafaqaxo'rlarni safarbar qilish hisobiga ham ishchilar safi kengayib bordi.

Sanoat ishlab chiqarishiga xotin-qizlar ayniqsa faol jalb qilindi. Agar 1940 yilda sanoatda ishlovchilar orasidagi xotin-qizlar salmog'i 34,0 %ni tashkil etgan bo'lsa, 1942 yilga kelib bu ko'rsatkich o'sib, 63,5%ga yetdi[4].

Termizda ko'plab erkaklarni urushga safarbar etish munosabati bilan shahardagi sanoat korxonalarining ko'plab o'rinlari bo'shab qoldi. Shu munosabat bilan ayollarni kasbga tayyorlash yuzasidan ishlar boshlab yuborilgan. Termiz sanoat kombinatida 128 nafar ayol frontga ketgan erkaklarning o'rnida ishlash uchun ishga qabul qilindi. Shahardagi barcha sanoat korxonalarida ayollar frontga ketgan erkaklarning o'rnini egallay boshladi. Masalan Termiz Paxta tozalash zavodida 48 nafar ayol frontga ketgan erkaklarning o'rnini egallab mehnat qilib boshlagan[3].

Harakatdagi armiyani qo'shimcha mablag' bilan ta'minlash maqsadida boshlangan, tezda umumxalq harakatiga aylangan mamlakat mudofaa fondiga mablag' to'plash ishiga Qashqadaryo viloyati xotin-qizlari ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Qarshi tumani dehqonlari qisqa muddat ichida mudofaa fondiga 125 ming so'm naqd pul yig'ib berishdi. Qarshilik X. Mamatova o'zining tilla uzugini, —Guliston arteli a'zosi Qobiljonova oltin soatini mudofaa jamg'armasiga topshirdi. Qarshi tumanidagi Stalin nomli dehqon xo'jaligidan urush qatnashchisining oilasi Karomat Qodirova o'zining kumush tangalarini hamda ish haqining bir qismini, 2 farzandini harakatdagi armiyaga jo'natib qo'ygan Chinni Sattarova esa 50 so'm pul topshirdi. Undan o'rnak olgan Kamandilik 17 xotin-qiz mudofaa fondiga o'z mehnat haqlarini o'tkazdilar[5].

1941 yili oktabr va noyabr oylarida Qarshi tumanida ham ayollar issiq kiyim-bosh va sovg'alar to'plash, uni harakatdagi armiyaga jo'natish ishlarini olib bordi. 1941 yilning 10 noyabrigacha 1195 kg. jun, 3384 ovchina, 34 juft valenka, 3438 juft belya va boshqa narsalar to'plandi. Shu maqsad uchun 95 m. so'm pul, Qarshi stansiyasi xotin-qizlaridan Rikova esa bir po'stin, bir valenka, bir dona fufayka, bir shim topshirdi. Qarshi stansiyasi xotin-qizlaridan Chlizarova boshliq keksalar bir necha juft issiq kiyim to'plab berdilar. Qarshi shahar shifoxona xodimlari qisqa muddat ichida 10 ta posyolka, 98 issiq kiyim, 295 paypoq tayyorlab berdilar.

Urushning dastlabki davridayoq bu vatanparvarlik harakatidan hech kim chetda qolmadi, har kim o'zining kuchi va imkoniyatga qarab munosib hissa qo'shdilar. Qarshi ped bilim yurti xodimlari bir po'stin, 8 teri, 137 issiq paypoq, 53 juft qo'lqop, 12 telpak, 66 issiq ko'ylak, 15 juft issiq paypoq, 1100 so'm pul, 13 paxtalik fufayka, bilim yurti direktori Obidov bir palto, bir dona teri, 4 ming so'm pul, shu bilan birga zayom obligatsiyasi topshirdilar, harakatdagi armiya uchun issiq kiyim bosh va sovg'alar to'plash harakati o'sib bordi. Yangi yil sovg'asi uchun 888 kg. mayiz va g'ulin, 675 shisha vino, 10 kg. bodom, 24 kg. sariq moy, 131 pachka moxorka, yuz dona sovun, 682 kg. quruq meva, 346 kg. yong'oq va jiyda 48 kg. qurit va boshqa narsalar, shahar meditsina xodimlari oktabr oyida 995 so'm pul, 12 sovg'a (posilka), 15 paypoq, qo'lqop, jo'n, paytava, shapka, 1942 yilning mart oyigacha g'arbiy frontga jang qilayotgan Siyazov dviziyasi uchun Obdida qishloq kengashidagi —Qizil kuch dehqon xo'jaligi a'zolari 7 sentner don, turli oziq-ovqat to'plab berdilar[6].

Qashqadaryoda ikkita o'qchi brigada va alohida (otliq) diviziyasi shakllandi. Viloyat tumanlariga taqsimlangan 5,861800 so'mdan 2,218400 so'mi Qashqadaryoda milliy o'zbek jangchilarining qo'shinlarini kiyimini tayyorlashga ajratildi. Shu jumladan Kitob tumaniga 377,6 ming so'm, Shahrisabz tumaniga 337 ming so'm, Qarshi tumaniga 222,4 ming so'mi berildi[2].

To'plagan issiq kiyim-bosh va sovg'alar doimiy ravishda frontlarga jo'natib turdi. Qashqadaryo viloyatidan 1942 yilning 12 fevralida jo'natilgan sovg'alar orasida 24 tonna go'sht, 26 tonna quruq meva, 14 tonna konditerlik mahsulotlari va boshqa narsalar, minglab yakka sovg'alar, issiq kiyimlar ham bor edi. 1943 yilning may oyigacha O'zbekiston aholisii uchun urush boshlangandan buyon frontlar uchun 6 ta vagon sovg'a to'plab jo'natildi. Bunday sovg'alar doimiy ravishda to'planib harakatdagi armiyaga jo'natib turildi[6].

Qarshi temir yo'li xotin-qizlaridan Rikova jangchilar uchun po'stin, kigiz etik, issiq ko'ylak, erkaklar shimini mudofaa jamg'armasiga yubordi. Harakatdagi armiyani issiq kiyim bosh va sovg'alar bilan ta'minlash ishlari Qashqadaryo xotin-qizlari orasida keng yoyildi. 1941 yilning oktabr oyida Qarshi tumanida issiq kiyim bosh va sovg'alar to'plash oyligi muvaffaqiyatli o'tdi.

O'zbekiston aholisi front yoqasidan ko'chirib keltirilgan bolalarga, keksalarga, yaradorlarga frontchi oilalarga o'zbekona mehribonlik qilishda o'zbek ayollar tashabbuskor bo'ldi.

Undan hech kim chetga qolmadi. Undan tashqari ko'chirib kelinganlar orasida bolalarni tarbiyasiga olishda ham tashabbuskor bo'lishdi.

Shahrisabz tumanidagi "Hujum" artteli ishchisi M.Tursunova butun Qashqadaryo viloyati ayollariga murojaat qilib,ko'chirib keltirilgan bolalarni olib tarbiyalashga chorlagan. Shunda

ko'pgana "Hujum" artelida faoliyat ko'rsatgan ishchi xotin-qizlar 1-2 bolalarni olib tarbiyalaganlar. Qarshilik I.Xoliyorova turmush o'rtog'ini urushga jo'natib 14 ta bolani tarbiyasiga olgan. Bu ayollarning insoniylik va vatanparvarlik namunalarini ko'rsatdi[7].

Bu davrda Qashqadaryo viloyatida jami bolalar uylari 22 taga yetdi va ulardagi yetim bolalar soni 1360 kishini tashkil etgan edi. Viloyatda 750 bola jamoatchilik yo'li bilan tashkil etilgan bolalar uylari bo'limlariga joylashtirildi. Qarshi shaharida 100 o'g'il-qiz sig'adigan alohida uy tashkil etildi. G'uzor qorako'lchilik davlat xo'jaligi ishchilari 23 boquvchisidan ajralgan, ko'chirib keltirilgan go'daklarni tarbiyaga oldilar. Viloyatda jami 5 ta bolalar uyi jamoatchilik qaramog'iga berildi.

Xulosa. Xullas, urush yillarida butun O'zbekiston xalqi kabi Qashqadaryo vohasi xotin-qizlari ham turli sohalarda faol harakat qildi. Ular yetim va qorovsiz qolgan go'daklarga g'amxo'rlik ko'rsatdilar hamda yuksak insoniylik fazilatlarini namoyish etdilar. Mamlakat mudofaa fondini tashkil etishga bu viloyat ayollari o'zlarining katta hissalarini qo'shdi. Ular Yer yuzini fashizm bolasidan asrab qolishdek muqaddas ishda ishtirok etib, o'ziga xos qahramonlik namunasini namoyish etdi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.

1. История второй мировой войны 1939-1945. В двенадцати томах. Том 3. -С.29.
2. Ergasheva Y., O'ljaboyeva N.K., O'ljaboyev D.K. Fashistlar Germaniyasini tor-mor etiShda Qashqadaryoliklarning qo'shgan hissasi.// —O'zbekiston Respublikasi 1941-1945 urush yillarida. Ilmiy to'plam, Qarshi, 1995, B.25-27.
3. S.Tursunov, Q. Eshboyev Sho'rchi tarixidan lavhalar, "Fan va texnologiya" nashriyoti" 2014y 122 bet
4. "Pravda", 1941 g. 29 iyunya
5. O'zbek xalqining ikkinchi jahon urushida g'alabaga qo'shgan hissasi (Arxiv xujjatlari to'plami)
6. Qodirova M., Issiq kiyim bosh va sovg'alar to'plash (1941-1945 yillar). // O'zbekiston Respublikasi 1941-1945 urush yillarida. Ilmiy to'plam, Qarshi, 1995, B. 51-54.
7. Front yoqasidan kuchirib keltirilgan bolalarga g'amxo'rlik. (Qashqadaryo viloyati misolida). // O'zbekiston Respublikasi 1941-1945 urush yillarida. Ilmiy to'plam, Qarshi, 1995, B. 53-54.